

REFLEKTIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Xumora Raximova

Namangan davlat universiteti, tayanch doktorant

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22303732>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda reflektiv yondashuvning imkoniyatlari yoritilgan. Reflektiv faoliyatning pedagogik tajribani tahlil qilish, o‘z kasbiy faoliyatini baholash, muammolar sabablarini aniqlash hamda keyingi faoliyatni takomillashtirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, reflektiv kundalik, o‘z-o‘zini baholash, kuzatish, qayta aloqa va reflektiv savollardan foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil kasbiy rivojlanishiga xizmat qilishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: reflektiv yondashuv, refleksiya, kasbiy kompetensiya, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi, reflektiv faoliyat, o‘z-o‘zini baholash, kasbiy rivojlanish.

Zamonaviy chet tili o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi nafaqat fan va metodikaga oid bilimlarni egallash, balki pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, o‘z faoliyatiga tanqidiy baho berish, qabul qilingan metodik qarorlarning samaradorligini aniqlash hamda zarur holatlarda o‘z pedagogik faoliyatiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish qobiliyatini ham nazarda tutadi. Shu jihatdan bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida reflektiv yondashuvdan foydalanish ularning kasbiy kompetensiyasini izchil rivojlantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Refleksiya pedagogik faoliyat jarayonida o‘qituvchining o‘z tajribasini anglash va tahlil qilishiga imkon beradi. D. Schön professional faoliyat kontekstida refleksiyaning ikki muhim ko‘rinishini: faoliyat jarayonidagi refleksiya (reflection-in-action) va faoliyatdan keyingi refleksiya (reflection-on-action)ni ajratib ko‘rsatadi. Birinchi holatda mutaxassis muayyan vaziyatning o‘zida o‘z harakatlarini tahlil qilib, zarur qarorlarni qabul qiladi; ikkinchi holatda esa amalga oshirilgan faoliyat natijalarini qayta ko‘rib chiqib, kelgusidagi faoliyat uchun tegishli xulosalar chiqaradi [1].

Mazkur yondashuv bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda alohida ahamiyatga ega. Ingliz tilini o‘qitish jarayoni turli kommunikativ vaziyatlar, o‘quvchilarning individual xususiyatlari, til o‘rganishdagi qiyinchiliklar hamda metod va vositalarni vaziyatga mos tanlash zarurati bilan tavsiflanadi. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchi faqat metodik tavsiyalarni bilishi emas, balki “Nima uchun aynan shu metodni tanladim?”, “U qanday natija berdi?”, “Talabalarning reaksiyasi qanday bo‘ldi?”, “Nimani o‘zgartirish kerak?” kabi savollar asosida o‘z faoliyatini tahlil qila olishi lozim.

T. Farrell reflektiv amaliyotni til o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishi bilan bog‘lab, refleksiyani faqat amalga oshirilgan darsni tahlil qilish bilan chegaralamaslikni taklif etadi. Uning reflektiv amaliyot modelida o‘qituvchining kasbiy qarashlari, prinsiplari, nazariy tasavvurlari, amaliy faoliyati hamda kasbiy faoliyatning kengroq ijtimoiy va axloqiy jihatlarini o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinadi [2]. Mazkur yondashuv refleksiyani alohida topshiriq sifatida emas, balki o‘qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanish mexanizmi sifatida tushunishga imkon beradi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini reflektiv yondashuv asosida rivojlantirishda bir qator amaliy vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Jumladan, reflektiv kundalik yuritish talabaga o‘quv yoki pedagogik amaliyot davomida yuzaga kelgan vaziyatlarni muntazam qayd etish, o‘z harakatlari va natijalarini tahlil qilish imkonini beradi. Kundalikda faqat sodir bo‘lgan voqea tasvirlanmasdan, uning sabablari, natijasi, talabaning munosabati va kelgusida vaziyatni qanday yaxshilash mumkinligi ham tahlil qilinishi zarur.


O‘z-o‘zini baholash reflektiv faoliyatning yana bir muhim komponentidir. Talaba o‘zining metodik bilimlari, darsni rejalashtirish, kommunikativ faoliyatni tashkil etish, o‘quvchilar bilan ishlash va pedagogik muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini belgilangan mezonlar asosida baholashi mumkin. Bunday baholash talabaning kuchli va rivojlantirilishi lozim bo‘lgan jihatlarini anglashiga xizmat qiladi.

Shuningdek, o‘zaro kuzatish va qayta aloqa bo‘lajak o‘qituvchilarda reflektiv ko‘nikmalarni shakllantirish uchun samarali imkoniyat yaratadi. Talabalar bir-birining mikrodarslari yoki pedagogik amaliyotdagi faoliyatini kuzatib, oldindan belgilangan mezonlar asosida konstruktiv fikr bildirishi mumkin. Bunda qayta aloqa faqat kamchiliklarni ko‘rsatishga emas, balki muvaffaqiyatli metodik qarorlarni aniqlash va ularni asoslashga ham yo‘naltirilishi muhim.

Reflektiv savollardan tizimli foydalanish ham kasbiy rivojlanish jarayonini faollashtiradi. Masalan, “*Darsning qaysi qismi samarali bo‘ldi?*”, “*Nima kutilganidek amalga oshmadi?*”, “*Buning sababi nimada?*”, “*Boshqa qanday metoddan foydalanish mumkin edi?*”, “*Keyingi darsda nimani o‘zgartiraman?*” kabi savollar talabani oddiy tavsiflashdan tahlil, baholash va pedagogik qaror qabul qilish bosqichiga olib chiqadi.

Reflektiv faoliyatning muhim jihati shundaki, u nazariya bilan amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta‘minlashga yordam beradi. Bo‘lajak o‘qituvchi pedagogika, psixologiya va ingliz tilini o‘qitish metodikasi bo‘yicha egallagan nazariy bilimlarini real yoki modellashirilgan pedagogik vaziyatlar bilan solishtiradi. Natijada metodik bilimlar tayyor qoidalar majmui sifatida emas, muayyan pedagogik muammoni hal qilish vositasi sifatida o‘zlashtiriladi. T. Farrell va M. Macapinlac tomonidan TESOL o‘qituvchilari bilan olib borilgan tadqiqotda ham reflektiv amaliyot o‘qituvchining kasbiy qarashlari, nazariy tasavvurlari va real pedagogik faoliyati o‘rtasidagi aloqalarni anglash imkonini berishi ko‘rsatilgan [3].

Shu nuqtayi nazardan, reflektiv yondashuv asosidagi kasbiy tayyorgarlik jarayoni 1-rasmdagi ketma-ketlik asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Mazkur jarayonda professor-o‘qituvchi tayyor yechimlarni beruvchi asosiy manba sifatida emas, balki talabaning o‘z faoliyatini tahlil qilishi va mustaqil professional qaror qabul qilishiga ko‘maklashuvchi fasilitator sifatida ishtirok etadi.



1-rasm. Kasbiy tayyorgarlikni tashkil etish jarayoni

Xulosa qilib aytganda, reflektiv yondashuv bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik tajribani ongli tahlil qilish, o‘z faoliyatini baholash, nazariya va amaliyotni integratsiyalash, metodik qarorlarni asoslash hamda individual kasbiy rivojlanish yo‘nalishini belgilash imkonini yaratadi. Reflektiv kundaliklar, o‘z-o‘zini baholash, o‘zaro kuzatish, konstruktiv qayta aloqa va reflektiv topshiriqlarning ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoniga tizimli kiritilishi talabalarning kelajakdagi pedagogik faoliyatiga ongli va mas‘uliyatli munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. — New York: Basic Books, 1983. — 374 p.
2. Farrell T.S.C. Promoting Teacher Reflection in Second Language Education: A Framework for TESOL Professionals. — New York: Routledge, 2015. — 154 p.

3. Farrell T.S.C., Macapinlac M. Professional Development Through Reflective Practice: A Framework for TESOL Teachers // Canadian Journal of Applied Linguistics. — 2021. — Vol. 24, No. 1. — P. 1–25. DOI: 10.37213/cjal.2021.28999.

4. Farrell T.S.C. Reflective Practice in Language Teaching. — Cambridge: Cambridge University Press, 2022.